

## **"NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASIDA TASAVVUF MASALALARI.**

*Ozodaxon Tilavboyeva Ruslan qizi*

*Amudaryo tumani 70-sonli mактаб о'qитувчиси*

*Nukus davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Nasoyim ul-muhabbat" asarida tasavvufiy tushunchalarning ma'nolarini o'rghanish haqida so'z yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: tasavvuf, so`fiylik, tariqat, komil inson, murid, solik, apli dil, apli hol, mutasavvif.

" Nasoyim ul - muhabbat"(" Muhabbat shabadalari") Jomiyning " Nafohat ul-uns" ("Do'stlik tarovati") asarining ijodiy tarjimasi bo'lib, 770 avliyo tarjimai holi keltirilgan, shulardan 35 tasini orifa ayollar tashkil etadi. Muqaddima tarjima qilinmasdan mustaqil tarzda yozilgan.

"Nasoyim ul-muhabbat" bir tildan ikkinchi tilga aynan o'girilgan asar emas, balki ijodiy yondashuvga tayanilgan erkin tarjima namunasi hisoblanadi. Buhga bir necha sabab bor:birinchidan, "Nafahot ul-uns" murakkab ilmiy-nazariy asar bo'lib, undagi arabcha va forscha ta'birlar va hikmatlar asosan ramz va ishora tilida aytiganligi sababli tasavvuf istilohlaridan bexabar kimsaning bu so'zlar mohiyatini anglashi qiyin kechadi. Shuning uchun, Navoiy kerakli joylarda matnni qisqa izoh va sharh bilan boyitib borgan. Jomiy tazkirasining muqaddimasida valiylik nazariyasiga ilmiy yondashilganligi sababli, Navoiy turkiyzabon o'quvchilar dunyoqarashini hisobga olgan holda musataqil ravishda nisbatan sodda va tushunarli muqaddima yozgan;ikkinchidan, Jomiy o'z asarini yozishda asosan Imom Yofi'iy, Sullamiy hamda Ansoriyning tazkiralariga tayangan. Navoiy esa asosiy manba - Jomiyning tazkirasidan tashqari, Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asaridagi 19 nafar mashhur avliyo, Shayx Farididdin Shakarganjdan so'ng Hindistonda

yashab o'tgan 31 shayx, shuningdek 100 dan ortiq turk mashoyixlari haqidagi ma'lumotlarni qo'shimcha tarzda keltirgan. Shuningdek, Nosir Xusrav, Shayx Mahmud Shabustariy, Ozariy, Lutfiy, Ashraf, Nasimi, Shayx Imodiddin Faqih, Mavlono Jomiy kabi valiylik maqomiga erishgan shoirlarga ham o'rinn ajratilgan. O'zi bevosita muloqot qilgan valiysifat zamondoshlaridan Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiy, Bobo Xokiy, Bobo Ali Mast Nisoiy, Bobo Xushkeldi singari Xudoning nazari tushgan aziz zotlar haqida ham ma'lumot berib, shayxlar sonini 618 dan 770 ga etkazgan.Jomiyning tazkirasi birinchi marta "so'fiy" nomi bilan eslangan Abuhoshim So'fiy zikri bilan ibtido topadi. Navoiy tazkirasi Uvays Qaraniy haqidagi fasl bilan boshlanadi. Uvays Qaraniyning Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga g'oyibona mehr qo'ygani uning kuchli va mustahkam muhabbat barcha islom ummati uchun ibrat hisoblanadi."Nasoyim ul-muhabbat" tarkibida tilga olingan avliyolar orasida islomdagi to'rt mazhab boshliqlari - imom A'zam, imom Molik, imom Shofe'iy, imom Ahmad ibn Xanbaldan tortib Muhammad G'azzoliy, Bahouddin Yalad, o'g'li Jaloliddin Rumiy,Rumiyning o'g'li Sulton Valad kabi buyuk zotlar haqidagi turli qiziqarli, ibratli hikoyalarga duch kelamiz. Ushbu avliyolar haqidagi ma'lumotlar ilmiy asosga ega bo'lib, tasavvuf tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi (Masalan, Jaloliddin Rumiyga bolaligida Fariddin Attor o'zining "Asromoma" asarini hadya qilishi yoki Shamsiddin Tabriziy va Rumiy uchrashuvi bilan bog'liq ma'lumotlar).Navoiy chishtiya tariqatining Hindistondagi yirik namoyandalari hayotini yoritishda Sayyid Muhammad Dehlaviyning "Siyar ul-avliyo" , Badriddin Is'hoq Dehlaviyning "Asror ul-avliyo" (Shayx Farididdin Shakarganj manoqibi), "Tabaqoti Nosiri" kabi muhim va mo'tabar manbalarga suyangan. Farididdin Attorning asarlari ("Mantiq ut-tayr" , "Tazkirat ul-avliyo"), Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si (Bobo Sungu, Shayx Boyazid haqidagi boblar), Sulton Husayn Boyqaroning xotiralari (Bobo Xushkeldi, Bobo Ali Mast Nisoiy), ismi keltirilmagan ishonchli kishilar rivoyat qilgan hikoyatlar hamda o'zining kuzatuvlari va xulosalari asosida turk mashoyixi

va zamondoshlari haqidagi haqiqatlarni tiklashga erishgan. Shu sababli "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasi XV asr ma'naviy hayotida muhim iz qoldirgan valiysifat insonlar haqidagi eng mo'tabar va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi.

Jomiy asarini tarjima qilish jarayonida Navoiy o'z asarini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish asnosida qisqartirish yo'lidan ham borgan. Ko'p rivoyatlar, bahsli nuqtalar, mohiyatan bir-birining takrori bo'lgan hikmatlarni tarjima qilmagan. Bahs va ixtilofga sabab bo'ladigan ayrim shayxlar haqidagi fasllarni umuman tashlab ketgan. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da mavjud manbalar asosida shayxlarning tarjimai holi, tug'ilgan yili va vafoti haqidagi aniq sanalarni ham keltirishga harakat qilgan. Ammo bu prinsipga qat'iy rioya etilmagan. Ba'zi shayxlarning yashagan davri va tug'ilgan joyi ma'lum emas. Ma'lumotlar hajmi ham har xil. Ba'zi shayxlar haqida ikki-uch sahifa ma'lumot berilgan bo'lsa, ayrimlari haqida ikki-uch og'iz so'z bilan kifoyalangan. Ammo barcha oriflarning qaysi shayxdan ta'lim olganligi, silsila omonatini kimdan olganligi, kimlarning suhbatiga etishgani haqida imkoniboricha aniq va ishonchli ma'lumotlar berilgan. Navoiyning ushbu tazkirani yozishdan maqsadi shayxlarning tarixiy siymosini yaratish emas, balki o'quvchida ularning ma'naviy olami haqida tasawur hosil qilish bo'lgan. "Nasoyim ul-muhabbat"dagi hikoyatlar, hikmat va rivoyatlarning asosiy qismi bashariy xislatlarni tark eta borib, ilohiy axloqni kasb etuvchi, ma'rifatni egallahga bel bog'lagan zotlarning ruhiy-axloqiy kamolot >yo'li, dunyoning arzimas manfaatlari ustidan g'olib chiqib, tafakkurining sathi osmon-u falaklar qadar keng qamrovli, ko'ngli Ma'rifat va Muhabbat maxzaniga aylangan komil insonlar haqida. Bunday hikoyatlar har bir insonning ruhiyatiga poklik olib kiradi, qalbda sof tuyg'ularni uyg'otadi, har qanday davr-u zamonda, har qanday sharoitda Rahmonning izidan, Haq yo'lidan borish abadiy saodatga eltuvchi yo'l ekanligini anglatadi. Alisher Navoiyning mazkur yo'nalishdagi asarlarini o'rganish orqali uning dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi bilan bog'liq muayyan ma'lumotlar olish bilan bиргаликда, uning islom ilmlarining yetuk bilimdoni ekanligi to'g'risida tasawur hosil qilamiz.

Bu ulug‘ shoirming o‘z davri ijtimoiy hayotida tutgan o‘rnii nechog‘lik muhim bo‘lganligini belgilab beruvchi o‘ziga xos omil ekanligi bilan ahamiyatli sanaladi. Tasavvuf so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, tasavvuf — islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘llovchi ta’limot, ya’ni komil inson bo‘lish. Tasavvuf so‘zining o‘zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e’tirof etilgan. U "Muqaddima" asarida tasavvuf "suvf" — "jun", "po‘stin" so‘zidan olingan bo‘lishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to‘qilgan kiyim yoki po‘stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi ahli dunyolardan farqli hayot tarzini o‘zlarida namoyon etganlar, deydi. Tasavvuf va "sufiy" so‘zlari IX asrning boshlarida yashagan Abu Hoshim Sufiydan boshlab joriy etilgan. Undan oldingi davrlarda bu atama o‘rnida "zuhd" ("zohidlik", "tarkidunyochilik"), "taqvodorlik", "parhezkorlik" kabi so‘zlar ishlatalgan. Ibn Xaldunning fikriga ko‘ra, sahabalar, tobeinlar va ulardan keyingi asr kishilarida hidoyat, ibodat, taqvo va zohidlik kabi his-tuyg‘ular mujassam bo‘lgan. Tasavvufda komil inson bo‘lish uchun to‘rt bosqichni bosib o‘tish kerak:shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat. Albatta, bu bosqichlarni ustozsiz o‘tab bo‘maydi. Tasavvufdan saboq oluvchi shaxs — murid, solik, ahli dil, ahli hol, mutasavvif kabi nomlar bilan atalgan. Tasavvuf bo‘yicha oliy maqomlarga erishgan sohibkaromat pirlar — valiy, avliyo, qutb, aqtob, avtod, chilton, abdol, abror, ahror, nujabo, nuqabo, siddiq, g‘avs va h.k. deyilgan. Tasavvuf istilohi asosida ijod etgan shoirlar majoz uslubini tanlaganlar. Shuning uchun haqiqat, majoz, tashbeh, istiora kabi mantiqiy qoidalardan boxabar bo‘lmagan kitobxon Navoiy, Fuzuliy, Atoyi, Umar Xayyom kabi mumtoz adabiyot namoyandalarining she’rlarini to‘la anglashi qiyin kechadi. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhbbat” asarida tasavvufiy tushunchalar buyuk mutasavvuflar haqidagi ma’lumotlarda keltirilgan. Bunday ma’lumotlarda ko‘proq tasavvuf bilan bog‘liq tushunchalar ifodalangan. Tasavvufda nafs faqatgina yeb-ichish, kiyish emas, balki u johillik, ilmsizlik, manmanlik, dunyoparastlik, o‘g‘irlik,

tamagirlik, poraxo'rlik, hasad, baxillik, mansabparastlik, shahvat, g'azab, xasislik, riyokorlik, rahmsizlik, zolimlikdir. Qisqacha aytganda, Allohdan uzoqlashtiradigan barcha narsalar nafsdır. Ahmad Yassaviy: "Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor" , - desalar, Alisher Navoiy "nafs itini zabun qilish" ga bejiz da'vat etmaganlar-da. Nafs-insonning ashaddiy dushmani. Navoiy shoirona shunday ifodalaydi:

Bo'lub nafsingga tobe, band etarsan tushsa dushmani,  
Senga yo'q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band1.

Shayx Uvays Qaraniy q.r haqida Navoiy quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Ollohning payg'ambari aytgan: Uvays Qaraniy ehson va mehribonligi bilan tobiinlarning yaxshisidur. Goh-goh Xojai olam s.a.v muborak yuzini Yaman sori qilib der edikim, Men xudoning nafasini Yaman tomonidan tuymoqdaman".<sup>2</sup>

Alisher Navoiy Shayx Uvays Qaraniy haqida ma'lumot berganga ul shaxsni "tobiinlarning yaxshisidur" deb yozadi. Tobe'in so'zi lug'atda "itoat, bo'ysinish" ma'nolarida keladi. Istilohda Payg'ambarimiz sollalohu alayhi vassallam sahabalarini ko'rgan musulmonlar "tobein" yoki "tobeiy" deyiladi.<sup>3</sup>

Mavlono Lutfiy haqida: "Tahsil ayyomida mavlono Shihobuddin Xiyobonin xizmatig'a yetar ekandur va odobi tariqat sulukini andin kasb qilur erkondur. Agarchi shoirlik ma'lum va mashhur bo'ldi. Ammo darveshlik tariqini dag'i ilkidan bermadi. Bu faqir borasig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar o'qur erdi va doim volida mulozamatig'a va rizoe xotirig'a targ'ib qilur erdi". Lutfiy haqida Navoiy yozar ekan uning darveshlik maqomi haqida gapirib o'ganini ko'rdik. Darvesh-tasavvufda o'zini Allah yo'lida xizmat qilishga bag'ishlab, o'z-o'zini kamolotga yetkazish yo'liga kirgan kishi. Darveshlik ta'limotining asosini zikr tutish orqali Xudo bilan "yaqinlashish" va hatto u bilan "qo'shilib ketish" mumkin, degan g'oya tashkil qiladi. Alisher Navoiy Sayyid Nasimiyl q.r. haqida ma'lumot berar ekan, ijodiga ham to'xtalib, quyidagi baytini keltirib o'tadi:

Ey, Nasimiyl, chun tuyassar bo'ldi iqboli visol,  
Qo'y, teringni so'ysa so'ysun bu palid qassoblar.

“Bu palid qassoblar teringni so‘ysa ham mayli, chunki senga Allohga yetishish nasib bo‘ldi”, -deydi Sayyid Nasimi. Baytda keltirilgan “Visol” (arabcha yetishish, vasl) tasavvufda “fano” maqomidan keyingi martaba. “Vasl” maqomiga erishgan solik Allohdan o‘zga barcha borliqdan ajralib, Unga, Allohga “yetishgan” bo‘ladi. Navoiy Shayx Kamol Xo‘jandiyning quyidagi baytidan misol keltiradi: Kamol, Ka’badan kechib yor eshigiga ketding, ming ofarin, mardona ketding! Ma’lumki, tasavvuf adabiyotida haqiqiy ishqdag'i yor timsoli Allohdir, ya’ni yor, jonon so‘zlari ko‘pincha ilohiy ma’rifatning oshiq qalbidadi jilolanishini bildiradi. Ishq ahli, ya’ni oshiqlar uchun Ka’badan ko‘ra Alloh(Yor)ning oldiga borish mardonlik bo’lar edi. Mashrab o`zbek tasavvuf adabiyotini yangi bosqichga olib chiqqan. Uning asarlari tili sodda va jonliligi bilan ajralib turadi. Mashrabning ham Shayx Kamol Xo‘jandiyning yuqoridagi misralariga hamohang “Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?!” misralari mavjud. Mashrabning fikricha, Makka ziyoratiga boorish uchun ham jiddiy tayyorgarlik talab etiladi. Bu talabning asosi ko`ngil pokizaligi, moddiy ehtiyoj va talablardan voz kecha olish, nafs qutqularidan forig‘ bo‘lish, ko`ngil obodligi ustida qayg‘urishdir.4

Tasavvuf ahli ba’zan oshiq, faqir, haqir, darvesh, qalandar, zohid, orif, devona, ahli muhabbat, ahli suluk, gado kabi atamalar bilan ham ifoda etilgan. Alisher Navoiyning “Nasoyim ulmuhabbat” asaridagi quyidagi misralarda ham faqir so‘zining asl mohiyati ochiladi:

Faqr – javhardir, faqr dan boshqasi arazdir,

Faqr – shifodir, faqr dan boshqasi bemorlikdir.

Olamning barchasi nayrang va g‘ururdir,

Faqr esa, olamdag‘i sir va maqsaddir.

Tasavvufning maqsadi komil insonni tarbiyalash ekan, qalb pokligiga erishgan, yuksak ma’naviyatli, aqlan va jismonan barkamol shaxsni ko‘z oldimizga keltiramiz. U Alloh visoli uchun o‘zligidan kechib foniylikni orzu qilgan faqirdir.

“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi quyidagi bayt ham buni tasdiqlamoqda:  
O‘zingdan kech, kamol faqat budur,  
Mutlaq foniy bo‘l, visol faqat budur.

“Nasoyim ul-muhabbat” Abdurrahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot il-quds» tazkirasining tarjimasi, lekin Navoiy Jomiy asariga erkin, ijodiy munosabatda bo‘ladi va uning asaridagi ma’lumotlarni to‘ldirib yoxud qisqartirib boradi. Bu asarda Navoiy qo’llagan tasavvufiy atamalarga oz bo‘lsada to‘xtalib, o‘z fikrlarimizni bayon etdik. “Nasoyim ulmuhabbat” bizga tasavvuf tariqatini, unda ifoda etilgan ma’lumotlarni, tarixni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhbbat” asari.
  2. Islom.ziyouz.com
  3. Adabiyot. 11-sinf o‘quvchilari uchun darslik. –T. 2018
  4. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. – T. 2010
- (1) Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhbbat”. 9-sahifa  
(2) Hoji Abdug‘afur Razzoq Buxoriy. “Tariqatga yo‘llanma”. Toshkent - 2003
- 3.Islom .ziyouz.com